



UDK: 930 (093.2)

ORCID: 0009-0002-1218-4153

**FARG‘ONA VODIYSINING PAXTACHILIGI TARIXIDA MINERAL
O‘G‘ITLARNI QO‘LLASH MASALALARI (KOLONIAL DAVRDAGI ARXIV
HUJJATLARI MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.029>

Mirzayev Avazbek Tolibjonovich

Andijon davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası dotsenti,

tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

avazbek.mirzaev.1956@mail.ru

Tel: +998-91-612-07-18

Annotatsiya. Mazkur maqolada, Turkiston dehqonchilik va davlat mulklari boshqarmasi, Qo‘qon birja komiteti va Marg‘ilon uyezdi shahar atrofi uchastka pristavi fondlarining arxiv hujjatlaridan foydalangan holda, mustamlakachilik davrida Farg‘ona viloyatida paxtachilikning rivojlanishi tarixining ayrim masalalari manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlarning ayrimlari birinchi marta ilmiy muomalaga kiritilmoqda.

Kalit so‘zlar: paxta, qo‘lyozma, agrotexnika, serunum, tajriba, tsirkulyar, manbashunoslik, risola, o‘g‘it.

Аннотация. В данной статье, с использованием архивных документов из фондов Туркестанского управления земледелия и государственных имуществ, Кокандского биржевого комитета и пригородного участкового пристава Маргиланского уезда, с источниковедческой точки зрения проанализированы отдельные вопросы истории развития хлопководства в Ферганской области в колониальный период. Некоторые сведения впервые внедрены в научный оборот.

Ключевые слова: хлопок, рукопись, агротехнология, плодородный, эксперимент, циркуляр, источниковедение, брошюра, удобрение.

Abstract. This article, using archival documents from the collections of the Turkestan Department of Agriculture and State Property, the Kokand Exchange Committee, and the Margilan District Suburban District Police Office, analyzes specific aspects of the history of cotton production in the Fergana region during the colonial period from a source study

perspective. Some of this information is introduced into scholarly circulation for the first time.

Key words: cotton, manuscript, agricultural technology, fertile, experiment, circular, source study, brochure, fertilizer.

KIRISH. Ma'lumki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligining muhim sohalaridan biri paxtachilik hisoblanadi. Shu tufayli ham davlatimiz va xukumatimiz, mamlakatimizda paxtachilikni intensiv texnologiya, fan va texnika yutuqlari asosida yuksaltirishga katta ahamiyat berib kelmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari qadim zamonlarda ham paxtachilik bilan shug'ullanganligi tarixiy ma'lumotlarda qayd etib o'tilgan. Gerodotning miloddan avvalgi 445 yildagi asarida, paxta, g'o'za haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlar keltirilgan. Gerodot o'z asarida, Hindistonda ip o'rami olinadigan daraxtlar o'sishi haqida yozgan [1.16].

Miloddan oldingi IV asrda Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari Hindistonga yurish qilganda, Markaziy Osiyo xalqlari paxta yetishtirib, undan mato to'qilishining guvohi bo'lishgan. Xitoyning tarixiy manbalaridan ma'lum bo'lishicha, eramizdan oldingi II asrda Farg'ona vodiysida juda ko'p shahar va qishloqlar bo'lgan, yerli aholi dehqonchilik va to'qimachilik bilan shug'ullangan.

O'zbekiston tarixi tadqiqotchilaridan biri, arxeolog olim, professor Yu.A. Zadneprovskiy rahbarligida Chustda olib borilgan qazilmalar chog'ida mato qiyqimlari topilgan. Bu mato eramizdan oldingi X asrda to'qilgan.

Xorazmdagi Tuproqqal'ani akademik S.P. Tolstov rahbarligidagi bir guruh arxeologlar tekshirganda topilmalar orasida VI - VII asrlarga oid paxta ashyosi va paxtalik chopon parchasi topilgan.

Milodiy X asrda yashagan arab geograflarining qo'lyozma ma'lumotlariga qaraganda, Markaziy Osiyo xalqlari paxtadan to'qigan turli gazlama va xotin-qizlar o'raydigan nafis ro'mollar Marv, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona, Toshkent, Chimkent shaharlaridan qo'shni davlatlarga chiqarilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasi bosib olganidan keyin, podsho xukumati o'lkani imperiya to'qimachilik sanoati uchun paxta xomashyosi yetkazib beruvchi manba hamda to'qimachilik sanoati mahsulotlarini pullaydigan bozorga aylantirishni maqsad qilgan. Imperiyaning o'sib borayotgan to'qimachilik sanoatini Turkistonning arzon paxtasi bilan ta'minlash maqsadida, o'lkada paxtachilikni rivojlantirishga katta e'tibor berib, bir qancha iqtisodiy va agrotexnika tadbirlarini ko'rdi; Rossiyaga chet mamlakatlardan keltiriladigan paxta uchun olinadigan bojning miqdori asta-sekin ko'paytirildi, temir yo'llarda paxta tashish uchun imtiyozli tarif belgilandi, paxtaga davlat yo'li bilan solinadigan soliq miqdori g'alla ekinlariga solinadigan soliq miqdori bilan almashtirildi, paxtadan olinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va bozorga sotish narxlari oshirildi. Rus to'qimachilik sanoati egalarining tashabbusi bilan AQShdan, Markaziy Osiyoda ekiladigan paxtaga qaraganda, sifatli, tolasi uzun, serunum

urug‘lik chigit keltirilib ekila boshlandi. Chunki, AQShdan Rossiyaga tashib keltiriladigan paxtaga nisbatan, Markaziy Osiyoda yetishtirilgan amerika navli paxta juda arzonga tushar edi. Shuning uchun ham rus to‘qimachilik sanoati egalari o‘lkada amerika navli paxta ekiladigan dalalarni kengaytirishga katta kuch va mablag‘ sarfladilar. Paxta va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarining sharoitini o‘rganish, hosildorligini oshirish, chigitini yaxshilash uchun 1895 yilda Toshkentning shimoliy qismida Turkiston qishloq xo‘jalik tajriba stansiyasi qurildi. 1899 yilda Andijonda va 1900 yilda Mirzacho‘lda ham shunday tajriba paxta dalalari vujudga keldi[2.39].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida, Markaziy Osiyoni chorizm bosib olgandan keyingi davr arxivlari, ya’ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr hujjatlari to‘la saqlangan[3.9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanayotgan Turkiston general-gubernatorligi uezdlari uchastka pristavlari fondlariga tegishli hujjatlar ham kolonial davr paxtachiligi tarixini o‘rganish bo‘yicha muhim tarixiy manba hisoblanadi. Mazkur fondlarda viloyat harbiy gubernatori va uezd boshliqlarini tsirkulyarlari(Tsirkulyar–yuqori tashkilotlar tomonidan quyi tashkilotlarga yuboriladigan farmoyish) va qarorlari, pristavlarning uchastkalar bo‘yicha buyruqlari, aholi tomonidan ariqlarni tozalash; irrigatsiya masalalari, to‘g‘onlar va ko‘priklar qurish bo‘yicha natural majburiyatni bajarilish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqida yozishmalar, paxta ekini dalalari va ulardan olingan hosil bo‘yicha statistik ma’lumotlar ham o‘rin olgan[4.55].

Ma’lumki, manbashunoslik nuqtai nazaridan XX asr boshlarida davlat idoralarida yozishma ishlarini olib borish bo‘yicha hujjatlarning asosiy turlari, xususan aloqa xatlari saqlanib qoldi[5.282].

O‘lka ma’muriyati Turkistonda paxta hosildorligini oshirish bo‘yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Masalan, Marg‘ilon uezdi shahar atrofi uchastka pristavi nomidan Marg‘ilon shahri atrofi uchastka pristaviga yuborilgan xatda, arab yozuvidagi o‘zbek tilida yozilgan «Turkistonda mineral o‘g‘itlarni qanday qo‘llash lozim» deb nomlangan broshyura, ya’ni risolaning 10 nusxasini paxta yetishtiruvchilariga tekinga tarqatishlik to‘g‘risida ko‘rsatma berilgan. Agarda yana qancha kishiga risola zarurligi haqida xabar qilinsa, kitobchadan kerakli miqdorda tekinga jo‘natilishi ma’lum qilingan. Ushbu aloqa xati Marg‘ilon uezdi boshlig‘ining Skobelov shahrida joylashgan kanselyariyasida, yuboriladigan hujjatlarni ro‘yxatga olish jurnalida, 1909-yil 24-fevralda № 442 chiqish raqami bilan qayd etilgan[6.2].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanayotgan Qo‘qon birja komitetining 90-fondida g‘o‘zani o‘g‘itlash masalalari bayon etilgan materiallar ham o‘rin olgan. Yaroslavl Katta manufakturasiga qarashli, Andijon uezdidagi Bo‘taqora qishlog‘ida joylashgan, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan Andreev xutorining agronomi N. N. Aleksandrov tomonidan rus tilida tuzilgan «Kak sleduet primenyat mineralnye udobreniya v Turkestane» («Turkistonda mineral o‘g‘itlarni qanday qo‘llash lozim») deb nomlangan broshyura (risola), polkovnik Likoshin N. S. tomonidan rus tilidan arab yozuvidagi o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Risola

dastlab Turkiston general-gubernatori kanselyariyasi huzuridagi tipografiyada 1908 yilda nashr etilib, o‘lkadagi viloyatlarning harbiy gubernatorlari, uездlar boshliqlari, uchastka pristavlari(Pristav–oktyabr to‘ntarishidan oldingi Rossiyada mahalliy politsiya boshlig‘i) orqali paxta yetishtiradigan dehqonlarga aholiga tekinga tarqatilgan. Ushbu qo‘llanma «Turkestanское селское хозяйство» («Turkiston qishloq xo‘jaligi») jurnalining redaksiyasida ham 1909 yilda ikkinchi marta bosib chiqarilgan[7.21-30].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxividagi Turkiston Dehqonchilik va Davlat mulklari boshqarmasining 7-fondida saqlanayotgan, chor mustamlakasi davrida Farg‘ona vodiysida faoliyat yuritgan Andijon tajriba paxta dalasi hisobotlarida, mineral o‘g‘itlarni qo‘llash bo‘yicha tajriba-sinov tadbirlarini muntazam tarzda amalga oshirilgani to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yoritilgan. Mahalliy o‘g‘itlar ichida tabiiy go‘ng asosiy o‘rinni egallaydi. Ma‘lumki, go‘ng tarkibida g‘o‘za uchun eng zarur hisoblangan azot, fosfor va kaliy o‘g‘itlari bo‘ladi[8.225].

Jumladan, arxiv hujjatlaridagi ma‘lumotlar miqdoriy tahlil etilganda, 1907 yilda mineral o‘g‘itlashda fosfor kislota – har bir desyatina dalaga 2 pud 2 funt, azot – 1 desyatina 1 pud 28 funt, kaliy – 1 desyatina 1 pud 27 funt, go‘ng – 1 desyatina 2 pud 30 funt, kaliyli fosfor kislota – 1 desyatina 2 pud 33 funt miqdorda foydalanilganligi aniqlandi[9,11].

1907-1908 yillarda Andijon tajriba paxta dalasidagi alohida ajratilgan paykallarni har biriga: 1. fosfor kislota; 2. azot; 3. kaliy; 4. fosfor kislota + azotni aralashmasi; 5. tabiiy go‘ng; 6. fosfor kislota + kaliyni aralashmasi; 7. fosfor kislota + azot+kaliyni aralashmasi kabi o‘g‘itlar solinib, tajriba o‘tkazilgan. Boshqa mineral o‘g‘itlarga nisbatan tabiiy go‘ng solingan paykaldan ko‘proq, 1907 yilda 98 pud, 1908 yilda esa 124 pud paxta xomashyosi terib olingani arxiv hujjatida qayd etilgan[10.45-46].

Andijon tajriba paxta dalasini mudiri A. Ya. Muxinning 1910 yil uchun taqdim etgan hisobotida, g‘o‘zaga ishlov berishda amalga oshirilgan tajribalarda mineral o‘g‘itlarni qo‘llash ishlari ham bayon etilgan. Mazkur yilda mineral o‘g‘itlar bilan tajribalar 2 ta paykalda o‘tkazilgan bo‘lib, King navli amerika paxtasini chigiti Banner seyalkasida ekilgan. Boshqa mineral o‘g‘itlarga nisbatan tabiiy o‘g‘it ya‘ni go‘ng solingan paykallardan eng ko‘p paxta hosili olingani hisobotda ta‘kidlab o‘tilgan[11.148-150].

Taniqli tarixchi olim Hamid Ziyoevning ta‘kidlashicha, «Amerika paxtasini iqlimlashtirishda va tarqatishda o‘zbek dehqonlarining tajribasi va mehnati muhim o‘rin egallagan. Darhaqiqat, barcha tajriba paxta stansiyalarida, plantatsiyalarda, shu jumladan o‘zlariga qarashli yerlarda ham Amerika paxta navlarini iqlimlashtirishdagi og‘irliklar asosan dehqonlar zimmasida bo‘lgan. Ularning boy tajribalarisiz paxtachilikni rivojlantirish amri mahol edi»[12.85].

XULOSA. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida mustamlakasi davrida Farg‘ona vodiysida paxtachilikning rivojlanishida mineral o‘g‘itlarni qo‘llanilishi masalalarini arxiv hujjatlari asosida o‘rganilishi natijasida yangi ma‘lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Додобоев Ю.Т., Хамидов М.Х. Мировое хлопководство. – Ташкент: «Ўқитувчи», 1985.
2. Саъдиев А. XIX асрда Туркистонда тарих фани. – Т.: «Ўздавнашр», 1960.
3. Алимов И. А. Архившунослик. Ўқув қўлланма. – Т.: «Тафаккур бўстони», 2015.
4. Путеводитель. Центральный Государственный Исторический Архив Узбекистана (ЦГА РУз.). Сост.: З.И. Агафонова, Н.А. Халфин. – Т., 1948.
5. Источниковедение. Учебное пособие. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2015.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-508, 1-ro‘uxat, 125-yig‘majild.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-90, 1-ro‘uxat, 29-yig‘majild.
8. Пахтачилик. Дарслик. – Т.: «Меҳнат», 1990.Б-225.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-7, 1-ro‘uxat, 3053-yig‘majild.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi, fond I-7, 1-ro‘uxat, 3053-yig‘majild.
11. Отчёты о состоянии и деятельности опытных хлопковых учреждений в Туркестане и в Закаспийской области в 1910 году. Вып. V. – С.-Петербург. Типография В. Киршбаума. 1913.
12. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Т.: «Шарқ», 2006.